

FORISH TUMANI MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TARIXIY-ARXEOLOGIK TADQIQI: HAZRATI ZAYNULOBIDDIN VA MOJRUM YODGORLIKLARI MISOLIDA

Olimova Sitora Ne'matjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi magistranti

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the historical, architectural, and ecological significance of tangible cultural heritage sites located in the Forish District of Jizzakh Region, Republic of Uzbekistan. Particular attention is given to the Hazrati Zaynulobiddin religious–architectural complex and unique heritage monuments situated in the village of Mojrum (Majrum). Based on contemporary scholarly approaches, the study examines key issues related to the preservation and protection of these sites, their digital passportization, and the prospects for developing pilgrimage and ecotourism as of 2025. Special emphasis is placed on the role of these heritage sites within the framework of sustainable development and the conservation of the cultural landscape of the Nuratau region.

Keywords: Forish District, Hazrati Zaynulobiddin, Mojrum juniper, tangible cultural heritage, archaeology, 2025 study, Nuratau State Nature Reserve, ecotourism, pilgrimage tourism.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Jizzax viloyati Forish tumani hududidagi moddiy madaniy meros obyektlari — Hazrati Zaynulobiddin majmuasi va Mojrum (Majrum) qishlog'idagi noyob yodgorliklarning tarixiy, me'moriy va ekologik ahamiyati tadqiq etiladi. Maqolada 2025-yilgi holatga ko'ra obidalarni saqlash, raqamli pasportlashtirish va ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari ilmiy asoslangan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Forish, Hazrati Zaynulobiddin, Mojrum archasi, moddiy meros, arxeologiya, 2025-yil tadqiqoti, Nurota qo'riqxonasi, ekoturizm, ziyoratgoh.

Аннотация: В статье представлен комплексный анализ исторической, архитектурной и экологической значимости объектов материального культурного наследия, расположенных на территории Фаришского района Джизакской области Республики Узбекистан. В частности, рассматриваются архитектурно-культовый комплекс Хазрати Зайнулобиддин и уникальные памятники, находящиеся в селе Моджрум (Маджрум). На основе современных научных подходов анализируются актуальные проблемы сохранения и охраны памятников, их цифровой паспортизации, а также перспективы развития паломнического и экотуризма по состоянию на 2025 год. Особое внимание уделяется роли данных объектов в контексте устойчивого развития и сохранения культурного ландшафта Нуратауского региона.

Ключевые слова: Фаришский район, Хазрати Зайнулобиддин, можрумская арча, материальное культурное наследие, археология, исследование 2025 года, Нуратауский государственный заповедник, экотуризм, паломнический туризм.

O'zbekiston Respublikasining moddiy madaniy merosini o'rganish va kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning strategik vazifalaridan biridir. Jizzax viloyatining Forish tumani o'zining geografik joylashuvi — shimolda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va janubda Nurota tog' tizmalari bilan o'ralganligi sababli, qadimdan insoniyat sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lib kelgan¹. Mazkur maqolada hududdagi eng ko'zga ko'ringan ikki yodgorlik — Hazrati Zaynulobiddin majmuasi va Mojrum qishlog'idagi tabiiy-tarixiy obidalarning 2025-yilgi holati tahlil qilinadi.

Forish tumanidagi eng yirik va nufuzli moddiy madaniy meros obyektlaridan biri – Hazrati Zaynulobiddinmajmuasidir. Ushbu majmua xalq orasida "Piri Forish" nomi bilan ham e'zozlanadi². Hazrati Zaynulobiddin Ziyoratgohi — Forish tumanining eng chekka, Navoiy viloyati Nurota tumani bilan chegaradosh hududida Mojrum qishlog'ida joylashgan. Bu qishloq Jizzax shahridan 121 km uzoqlikda joylashgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yilgi "Madaniy merosni asrash strategiyasi" to'g'risidagi hisoboti.

² Abdullayev T. Forish va Nurota yodgorliklari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 45.

Iqlimi quruq va iliq kontinental iqlimga ega bo'lib, bu yerda yiliga 300-400 millimetr yog'ingarchilik bo'ladi. Yillik o'rtacha harorat 14 daraja, yanvarda o'rtacha harorat 19 daraja sovuq bo'lsa, iyulda esa 30 daraja issiqni tashkil etadi. Aytish joizki, hududda aniqlangan mutlaqo yuqori harorat 47 daraja issiq, mutlaqo past harorat esa 32 daraja sovuqqa teng. Qish o'rtacha sovuq, qor yog'ishi va ayoqli kunlar davomli haroratning iliqdigi bilan yomg'irli va shamolli ob-havo bilan almashib turadi. Bahor qisqa, iliq va yog'ingarchilikka boy bo'ladi. Shuningdek, bahorda iliq va ochiq havo tez-tez davomli sel bilan almashib turadi, ko'p hollarda tumanlar, momaqaldiroq, haroratning sovib ketishi va qor yog'ishi kuzatiladi. Bu o'z navbatida insonga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Yoz davomli, issiq va quruqligi bilan, kuz esa shabadalari-yu, tumanli va yog'ingarchilik ob-havosi bilan ajralib turadi. May-iyun oylarida bu hududning tabiati o'ziga xos tarovati bilan ajralib turadi. Tog' yon bag'ridagi yashillik, o'simlik dunyosidagi xilma-xillik, musaffo havo, jilg'alarning ovozlari kishiga zavq bag'ishlaydi³.

Hazrati Zaynulobiddin to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan „Xazinat ul-asfiyo“ kitobida ma'lumot berilgan. Unga ko'ra, Zaynulobiddin degan nomni olgan zot hazrat Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning 24-avlodlari, ya'ni hazrat Alining 25-avlodlari ismlari – Alouddin, xalq tomonidan berilgan nomlari – Zaynulobiddin (taqriban 895-yilda tug'ilib, 915-yilda vafot etganlar) bo'lib, u zot ayni yigitlik davrlarida Nogur yo'lida otasining ko'z oldida yo'lto'sarlar qo'lida shahid bo'lgan⁴. Zaynulobiddin nomini berilishi va uning ma'nosi juda keng qamrovli hodisa hisoblanadi. Zaynulobiddin – dinga sig'inuvchilar (xudojo'ylar)ning eng a'losi, go'zali degan ma'noni anglatadi. Dastlab bu nom imom Alining faxriy unvoni bo'lgan. Hazrati Ali xudoj'oyligi, su'rati va siyratida diniy go'zallikni namoyon bo'lishi uni ushbu unvonga sazovor etgan. Oradan ko'plab asrlar o'tib, uning 25-avlodi tomonidan ushbu unvonni olinishi, tamomila Hazrati Aliga

³ Og'a Burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgohlari. – Toshkent: Fan, 2008.

⁴ Og'a Burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgohlari. – Toshkent: Fan, 2008.

munosib avlod ekanligidan dalolat beradi⁵. Majmua tarkibiga masjid, maqbara, chillaxona va qadimiy hovuz kiradi. Binolarning qurilish uslubi Markaziy Osiyo oʻrta asrlar meʼmorchilik anʼanalariga xos boʻlib, mahalliy togʻ toshlari va pishgan gʻishtlarning uygʻunlashuvi bilan ajralib turadi. 2025-yilgi ilmiy monitoring natijalari shuni koʻrsatadiki, majmuaning poydevor qismlari IX-X asrlarga borib taqaladi, ammo uning hozirgi koʻrinishi asosan Temuriylar davri va keyingi bosqichlardagi qayta qurishlar mahsulidir⁶.

Forish tumanining togʻli hududlarida joylashgan Mojrum qishlogʻi oʻzining noyob obyektlari bilan YuNESKO standartlariga mos keladigan etno-madaniy hudud hisoblanadi. Mojrum qishlogʻidagi eng mashhur obyekt — bu ulkan qadimiy archadir. **Mazkur archa Forish-Nurota yoʻnalishi boʻylab (avtomagistral yoʻli) Forish tumani markazidan 54 km uzoqlikdagi Nurota togʻ etagidagi Mojrum qishlogʻining yuqori qismida joylashgan. Mojrumsoy daryosining chap qirgʻogʻida joylashgan Qoʻrgʻon deya ataluvchi eski Mojrum qishlogʻi tosh uylari qoldiqlari va masjid xarobasi yonida oʻsayotgan bu sharq biotasi (tuya) qadimiy tarixga ega. Mojrum tuya daraxti mahalliy aholi tomonidan “Makedonskiy” archasi sharq biotasi deb ham nomlanadi⁷. Taxminiy yoshi ikki ming yildan ortiq. Mojrum archasining uchta poyasining jami aylanasi 24 metr, diametri 8 metr atrofida, markaziy shox aylanasi 12 metr atrofida hisoblanib, oldida masjid qoldiqlari va eski qishloq joylashgan.**

Asrlar davomidagi taʼsirlar natijasida daraxtning uchta yirik shoxi yerga qadar egilib qolgan. Aslida, ularni shox deyish qiyin, sababi, ular ulkan daraxt tanasi boʻlib, bir paytning oʻzida unga bir nechta kishi sigʻadi. Poyalarni mahalliy aholi toshlardan qurgan tayanch-tosh devorlar ushlab turadi. Daraxt yaqinidagi balandlikda joylashgan Mojrum qalʼasi xarobalari hududning

⁵ Aqchaev F.SH. „Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari“(PhD. Diss.). Toshkent – 2020.

⁶ Jizzax viloyati Madaniy meros boshqarmasining 2025-yilgi texnik-monitoring xulosasi.

⁷ Dala yozuvlari. 2024-yil. Jizzax viloyati, Forish tumani, Mojrum qishlogʻi. Mahalliy xalq orasida Iskandar Zulqarnayn gʻarbdna kelib, Ustrushonaga yurish boshlaganda mazkur daraxt tagida askarlari bilan dam olgan degan rivoyat bor.

mudofaa tizimi haqida boy ma'lumot beradi. 2024-2025 yillarda o'tkazilgan qazishmalarda bu yerdan ilk o'rta asrlarga oid sopol idishlar, metall buyumlar va tangalar topilgan bo'lib, ular hududning qadimiy savdo yo'llari chorrahasida joylashganini tasdiqlaydi⁸.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Forish tumanining bebaho xazinasini bo'lgan ushbu moddiy va tabiiy yodgorliklar O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" va barqaror turizm strategiyasida markaziy bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Ularni asrab-avaylash nafaqat milliy o'zlikni anglash, balki mintaqaning xalqaro nufuzini yuksaltirishning kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni (2025-yil tahriri).
2. Azamatov A. Forish tarixi va arxeologiyasi. Jizzax, 2023.
3. Ubaydullayeva B., Bababekov A., Nazarov N., Anarkulov S., Abdusatorov SH., Abduzohirov R., Babarahimov T. "Forish tumani turiz salohiyati" monografiya Toshkent "Ma'rifat" 2025
4. Nurota davlat qo'riqxonasi ilmiy arxivi. 2024-2025 yillik hisoboti.

⁸ Karimov N. Markaziy Osiyo qadimiy istehkomlari. Toshkent: Fan, 2023. – B. 112.